

BEMORNING JISMONIY VA RUHIY YAXLITLIGINING AXLOQIY MUOMMOLARI. OITSGA CHALINGAN BEMORLAR VA GIYOHVAND MODDALARGA QARAM BEMORLARNING AXLOQIY VA HUQUQIY MUOMMALARI. OIV HAQIDAGI MALUMOT VA TUSHUNCHALAR

Fazliddinov Javlonbek Kamolddin o'g'li
Toshkent Davlat stomatologiya instituti

Anotatsiya: Ushbu maqolada OITS va OIV haqida turli xildagi ma'lumotlar mavjud, yuqish yo'llari, kasallik belgilari, alomatlari, profilaktik chora-tadbirlar, shaxsiy ehtiyot choralar, kasallik kechish davrlari va ushbu kasallikla chalingan bemorlar psixikasi, kasallikning asoratlari.

Kalit so'zlar: Asimptomatik, antiretrovirus preparatlar, postkontakt profilaktika, ARV, YSART, KART, tanosil kasalliklar, vaginal,

Orttirilgan immun tanqisligi sindromi (OITS) — retrovirus guruhiga mansub virus qo'zg'atadigan kasallik; ikki davrga bo'linadi: OIV infeksiyasi va bevosita OITS (SPID) davri. OIV infeksiyasi davri odam organizmida virus bor, lekin kasallik alomatlari hali na-moyon bo'lmagan davr. Virus deyarli bir vaqtda Parijda professor Lyuk Montanye hamda AQShda professor Gallo boshchiligidagi olimlar tomonidan kashf etilgan (1983-yil). Bu virus odamning immun tizimiga tanlab ta'sir ko'rsata-di, ayniqsa, SD4+ immun hujayralariga qirg'in keltiradi. Virus odam organizmiga tushgach, 2—3 kundan so'ng, 25—30% hollarda birlamchi infeksiya davriga xos alomatlar kuzatilishi mumkin. Bu "o'tkir serokonversiya sindromi" deb ataladi, bunda harorat ko'tariladi, tunda terlash, bo'g'imlar va bosh og'rig'i, loxaslik, qayt qilish, ich ketishi, badanda, ayniqsa, uning yuqori qismida toshmalar paydo bo'lishi mumkin. Bu alomatlar odam organizmiga tushgan virus ta'siriga immun tizimi ma'lum darajada javob qaytarish reaksiyasi bilan bog'liq. Lekin bu davrda antitelolarni aniqlash natija bermaydi, chunki immun tizimining javobi hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Kasallikning bu davri 8—10 yilgacha, ba'zan undan ham uzoq davom etishi mumkin. Hozirgi kunda amaliyotda OIV infeksiyasi tashhisini qo'yish qonda kasallik virusiga qarshi paydo bo'lgan antitelolarni aniqlash — immun ferment taxlili (IFT) reaksiyasiga asoslangan. Dastlabki antitelolar virus organizmga tushgach, 3 haftadan so'ng shakllana boshlasa ham, qo'llanadigan diagnostikumlar ularni ilg'ay olmaydi. Shu bois, odamga ushbu infeksiya ilashgani to'g'risida virus organizmga tushganidan so'ng 90 kun o'tkazib olingan tek-shirish natijasiga qarab xulosa chiqarish mumkin.

OITS OIV infeksiyasining yakuniy davri hisoblanadi. Virus bilan organizm o'rtasidagi kurash uzoq davom etib, virusning ustunligi bilan tugaydi. Shu vaqtdan

OITS davri boshlanadi. Bu davrda odam organizmi har qanday mikrobg'a bardosh berish xususiyatini yo'qotadi. Jumladan, nafas, me'dachak, siydik yo'llarida doimo mavjud bo'lgan va kasallik qo'zg'ata olmaydigan mikroblar ham faollashib, turli xastaliklarni keltirib chikari-shi mumkin. Ularning namoyon bo'lishi organizmda yuzaga kelgan OITS holati bilan bog'liq bo'lgani uchun, ushbu guruhga kiruvchi kasalliklar jamlangan holda OITS bilan bog'liq (assotsiirlangan) infeksiyalar deb ataladi. Bular bakterial infeksiyalar, zamburug'li kasalliklar, viruslar qo'zg'atadigan kasalliklar, Kaposhi sarkomasi va hokazo.

Kasallik virusi infeksiya yuqqan odamning qonida, erkaklar shahvatida, ayollarning jinsiy a'zolari chiqindilarida va ko'krak sutida bo'ladi. Shuning uchun OITV, asosan, uch xil yo'l bilan yuqadi: qon orqali, jinsiy aloqa vositasida va infeksiya yuqqan onadan homilasiga vertikal yo'l bilan o'tadi.

OITS bilan og'riqlarning ko'pchiligini narkomanlar (giyoxvandlar), fohishalar, gomo- va biseksuallar tashkil etadi. OITS organizmga jinsiy aloqa, parenteral muolajalar (nosteril igna, shprints va boshqa tibbiy anjomlar ishlatilganda), inifitsirlangan qon va uning o'rnini bosuvchi dorilarni qo'llash, a'zo va to'qimalarni ko'chirib o'tkazish (transplantatsiya) vaqtida, shuningdek, virusni yukitirib olgan onadan homilaga homiladorlik davrida, tug'ish jarayonida va go'dak emi-ziladigan bo'lsa, ko'krak suti bilan yuqib qolishi mumkin.

O'zbekistonda OIV/OITS bilan bog'liq masalalar Sog'liqni saqlash vazirligining OIV/OITS xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Respublika.OIV/OITS markazi, Qoraqalpog'iston Respublikasi OIV/OITS markazi, Toshkent shahar va viloyatlar OIV/OITS markazlari o'z xududlarida ushbu soha faoliyati bilan bog'liq barcha profilaktik, epidemiologik, lab. tekshiruv, davolash tadbirlarini olib boradi. Har bir markaz qoshida o'z ixtiyori bilan lab. tekshiruv uchun kelganlarni sir saqlagan holda tekshiradigan anonim xonalar mavjud. Maqsadli guruhlargiyohvandlar va seksilog xodimlari bilan virus yuqib qolishining odsini olish maqsadida xufiyona ish olib boradigan Ishonch punktlari (IP) ham ishlaydi.

Profilaktikasi. Ushbu infeksiya keng tarqalgan kasalliklardan biri bo'lgani uchun muhofaza tadbirlari ijtimoiy hayotning barcha soha vakillari ishtirokida olib borilishi lozim. Har bir yigit-qiz bu infeksiyaning tarqalish yo'llari, uning oldini oladigan tadbirlardan xabardor bo'lishi va o'zini undan ehtiyot qilishi kerak.

OIV QANDAY YUQADI

Jinsiy aloqa orqali yuqishi — bu infeksiyalangan jinsiy suyuqliklar (og'iz bo'shlig'i, rektal, genital yoki shilliq pardalari) bilan aloqa qilganda yuzaga kelishi mumkin. Bu vaginal, oral va anal kabi himoyalangan jinsiy aloqa vaqtida sodir bo'lishi mumkin.

Perinatal yuqishi — ona tug'ruq paytida, homiladorlik paytida, shuningdek, emizishda infeksiyasini bolaga yuqtirishi mumkin.

Qon quyish orqali yuqishi — hozirgi vaqtda qon quyish orqali OIV yuqtirish xavfi rivojlangan mamlakatlarda juda ehtiyotkorlik bilan tekshiruv va ehtiyot choralari tufayli juda past. Shu bilan birga, giyohvand moddalarni qabul qiluvchilar yoki bemorning qoni bilan zararlangan shpritslarni qayta ishlatish oqibatida kasallik yuqish xavfi juda yuqori.

OITS ALOMATLARI

Ko'p hollarda OITS (SPID) belgilari bakteriyalar, viruslar, zamburug'lar va / yoki parazitlarning rivojlanishi sabab yuzaga keladi. Ushbu holatlar odatda tanani infeksiyadan himoya qiladigan sog'lom immun tizimiga ega bo'lganlarda rivojlanmaydi.

DASTLABKI ALOMATLARI

OIVga chalingan ko'plab odamlarda OITS alomatlari va belgilari bir necha oy yoki hatto yillar davomida uchramaydi. Boshqalarda gripp va shamollashga o'xshash alomatlar rivojlanishi mumkin, ular odatda virus yuqganidan 2-6 hafta o'tgach namoyon bo'ladi.

Kasallikning birinchi belgilari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- Istim;
- Varaja qilish;
- Bo'g'imlardagi og'riq;
- Mushaklardagi og'riq;
- Tomoq og'rishi
- Terlash (ayniqsa tunda);
- Bezlarning kattalashishi;
- Qizil toshmalar toshishi;
- Charchoq;
- Zaiflik;
- Tana vaznini yo'qotish.

ASIMPTOMATIK (BELGILARSIZ)

Ko'pgina hollarda OITSning dastlabki alomatlari yo'qolib ketganidan keyin ko'p yillar davomida qo'shimcha kasallik alomatlari kuzatilmaydi.

Shu vaqt ichida virus rivojlanib, immun tizimi va tana a'zolariga zarar yetkazishda davom etadi. OIVni replikatsiyalashga qarshi dori vositalarisiz ushbu jarayon o'rtacha 10 yilgacha davom etishi mumkin. Infeksiyalangan odamda odatda hech qanday alomat kuzatilmaydi, u o'zini yaxshi his qiladi va sog'lom ko'rinadi.

KASALLIK HAQIDA AFSONA VA HAQIQATLAR

Mazkur kasallik haqida ko'plab noto'g'ri tushunchalar mavjud. Virus quyidagi hollarda yuqmaydi:

- Qo'l berib ko'rishish;
- Quchoqlashish;
- Kundalik o'pishlar (agar og'izda yaralar bo'lmasa);
- Aksa urish;
- Teri bilan aloqa;
- Sochiqlarni birga ishlatish;
- Ro'zg'or buyumlari (qoshiq, piyola, kosa va hokazo).

TASHXISLASH

CDC (kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlari) ma'lumotlariga ko'ra, har 8 ta OIV bilan kasallangan amerikaliklarning bittasi o'zlarining holatidan bexabar.

QON NAMUNASINI TAHLIL QILISH

Tashxis virus mavjudligini aniq ko'rsatadigan qon tahlili yordamida amalga oshiriladi. Agar virus aniqlangan bo'lsa, test natijasi «ijobiy» bo'ladi. Qon bemorga kasallik mavjud deya xabar berilgunga qadar bir necha marta qayta tekshiriladi.

Agar bemor virusga duchor bo'lsa, u imkon qadar tezroq sinovdan o'tishi juda muhimdir. OIV erta aniqlanganda davolanishning muvaffaqiyatli bo'lishi ehtimoli ko'proq. Bundan tashqari, uyda o'tkazsa bo'ladigan test vositasidan foydalanish mumkin.

Virus yuqganidan so'ng, test natijasida ijobiy natija berishi uchun 3 haftadan 6 oygacha vaqt ketishi mumkin. Ba'zan qayta sinov qilinishi talab etiladi.

OITS (SPID) NI DAVOLASH

Hozirgi kunda OIV yoki OITSGa davo yo'q. Mavjud davolash usullari kasallikning rivojlanishini sekinlashtirishi mumkin va ko'pchilik odamlarga uzoq va nisbatan sog'lom hayot kechirishga imkon beradi.

Infeksiyalanish erta muddatlarda aniqlanganda antiretrovirusli davolanish juda muhimdir — bu hayot sifatini yaxshilaydi, umr ko'rish davomiyligini uzaytiradi. Shuningdek, 2013-yil iyun oyida chop etilgan Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti yo'riqnomalariga muvofiq yuqtirish xavfini kamaytiradi.

Hozirgi kunda ushbu infeksiyaga qarshi hech qanday emlash yoki dori-darmon ishlab chiqilmagan, ammo so'nggi yillarda davolash usullari ancha yaxshilandi. Bemorlarning sog'ligi va hayot sifatini kuniga qabul qilinadigan bir tabletka sezilarli darajada yaxshilasi mumkin.

FAVQULODDA TABLETKALAR

Agar odam so'nggi 72 soat ichida (3 kun) virus yuqtirganligiga amin bo'lsa, PEP deb ataladigan OIVga qarshi vositalar (postkontakt profilaktika) kasallik rivojlanishini to'xtatishi mumkin. Davolashni virus yuqganidan keyin imkon qadar tezroq olish kerak.

PEP 4 haftalik, faqat 28 kun davom etadigan davolashning juda qiyin usuldir. Bu noxush nojo'ya ta'sirga (diareya, ko'ngil aynishi va bosh og'rig'i) sabab bo'lishi mumkin.

OIVga ijobiy tashxis qo'yilgach, davolanishni boshlashdan avval virusning rivojlanishini kuzatish uchun muntazam qon tekshiruvlari topshirib turish kerak. Terapiya ko'plab afzalliklarga ega va qonda virus darajasini kamaytirishga qaratilgan.

ANTIRETROVIRUS PREPARATLAR

OIV ni davolash antiretrovirus (ARV) dorilar bilan amalga oshiriladi. Preparatlar infeksiya bilan kurashadi va organizmda virus tarqalishini sekinlashtiradi. Odatda, bemorlar YSART (yuqori samarali antiretrovirus terapiya) yoki KART (kombinativ antiretrovirusli terapiya) kabi kombinatsiyalangan davolashni oladilar.

Kombinativ dori vositalari har bir insonga mos keladi. Kasallikka qarshi kurashish davolash odatda doimiy va umrbod davom etadi. OIVni davolash odatdagi dozaga asoslangan. Tabletkalar har safar muntazam ravishda rejalashtirilgan holda qabul qilinishi kerak. ARV ning har bir turi har xil nojo'ya ta'sirga ega, ammo ba'zi bir umumiy ta'sirlari ko'ngil aynish, charchash, ich ketishi, bosh og'rig'i, terida toshma toshishi yoki ko'rishning xiralashishini o'z ichiga olishi mumkin.

QO'SHIMCHA YOKI MUQOBIL TIBBIYOT

Ba'zi bir cheklangan tadqiqotlarga binoan, o'simlik dori vositalari kabi muqobil dori-darmonlar samarali qo'llanilmagan, ammo mineral yoki vitaminlar umumiy salomatlik holatiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Bemorlarga bu usullarni shifokorlari bilan muhokama qilish tavsiya etiladi.

OLDINI OLISH

Virus yuqishini oldini olish uchun tibbiyot xodimlari quyidagi choralarni tavsiya qilishadi:

Himoyalangan jinsiy aloqa — prezervativsiz jinsiy aloqa (vaginal, oral va / yoki anal) — jinsiy yo'l bilan yuqadigan OIV va boshqa tanosil kasalliklari bilan kasallanish xavfini oshiradi.

Giyohvandlik va igna almashish — intravenoz (vena ichiga) narkotiklardan foydalanish rivojlangan mamlakatlarda OIV yuqishining asosiy sabablaridan biri sanaladi. Ignalarni almashib foydalanish OITS va gepatit C kabi boshqa xavfli virusli kasalliklarga olib kelishi mumkin. Ignadan foydalanishdan u toza, foydalanilmagan, o'ramidan ochilmaganligiga e'tibor berish kerak.

Tanaga ta'siri — OIV zararlangan qon ta'siri xavfini kamaytirish va oldini olish uchun ehtiyot choralarini qo'llash orqali nazorat qilinishi mumkin. Har qanday holatda ham sog'liqni saqlash xodimlari baryerlardan (qo'lqoplar, niqoblar, ko'zoynaklar, qalqonchalar va xalatlar) foydalanishlari kerak. Qon yoki boshqa tana suyuqliklari bilan aloqadan so'ng terini darhol va to'liq yuvish kasallanish ehtimolini kamaytirishi mumkin.

Homiladorlik — ayrim ARV preparatlari tug'ilmagan chaqaloqqa zarar yetkazishi mumkin. Biroq, samarali davolash rejasi OIV infeksiyasini onadan bolaga yuqishini oldini oladi. Bolaning sog'lig'ini himoya qilish uchun ehtiyot choralarini ko'rish zarur. Kesarcha kesish talab qilinishi ehtimoli mavjud. Ushbu virus bilan kasallangan onalar bolalarini emizmasliklari kerak.

Ta'lim — sog'liqni saqlash ta'limi insonlarga kasallik yuqishi yo'llari va xavf omillarini tushuntirishi kasallikning odini olish uchun muhim hisoblanadi.

OIV`NI NAZORAT QILISH

Qat'iylik — OITSni davolash faqat dori-darmonlar o'z vaqtida qabul qilinganda samarali bo'ladi. Hatto bir necha dozaning yo'qligi davolanishni xavf ostiga qo'yishi mumkin. Kundalik metodik dastur bemorning turmush tarzi va tartibi atrofida davolanish rejasiga muvofiq bo'lishi uchun dasturlashtirilishi kerak. Bir kishi uchun davolash rejasi boshqa bir kishi uchun davolash rejasi bo'la olmaydi.

Umumiy salomatlik — bemorlarning dori-darmonlarni to'g'ri qabul qilishi va boshqa kasalliklardan qochish uchun choralar ko'rishi muhimdir (masalan uzoq vaqt sovuqda qolmaslik). Bemorlarning umumiy sog'lig'ini yaxshilash va muntazam mashqlar qilish, sog'lom ovqatlanish, chekmaslik, spirtli ichimliklar ichmaslik, kasallik xavfini kamaytirish uchun harakat qilishlari kerak.

Qo'shimcha choralar — OIV bilan kasallangan odamlar boshqa kasalliklar bilan kasallanishining oldini olishga harakat qilishlari kerak. Ular hayvonlarga ehtiyot bo'lishlari, mushuklar va hayvonlarning najaslari bilan, shuningdek, qushlar bilan aloqa qilishdan qochishlari kerak. To'liq va muntazam ravishda qo'l yuvish tavsiya etiladi.

Uzoq muddatli holat — ushbu sindrom uzoq muddatli holat, shuning uchun bemorlar o'zlarining sog'liqni saqlash jamoasi bilan doimo aloqada bo'lishi kerak. Davolash rejasi muntazam ko'rib chiqiladi.

Psixologik — virus va u keltirib chiqaradigan immunitet tanqisligi sindromi haqida keng tarqalgan noto'g'ri tushunchalar kamayishi sezilgan. Holbuki, dunyoning ko'plab mamlakatlarida bu holat saqlanmoqda. Virus bilan kasallangan odamlar o'zlarini cheklanganidek, rad etilgandek, kamsitilgandek his qilishi mumkin. Bu holatda psixolog yordami juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiotlar:

1. TALIM TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISH: Siddiqov Nurali Nishonalievich, TDSI Izhtimoi fanlar bioetika kursi bilan katta o'qituvchisi
2. N.N.Siddiqov – Ilmiy-amaliy konferensiya, 2022 yil
3. O'RTA VA KICHIK BIZNARLIK SOHASIDA YOSH EHKORLARNING IJTIMOY MAS'uliyati N.N.Siddiqov - Sotsiosfera, 2020
4. Nurali Nishonalievich Siddiqov. "SONGNI SAGLASH TIZIMIDA "IZHTIMOII SHERIKCHILIK TJGRISIDA"GI KONUNIING URNI" Akademik tadqiqotlar ta'lim fanlari, jild. TSDI va TMA konferentsiyasi, №. 2, 2022, bet. 91-94.
5. Nurali Nishonalievich, S. (2022). TADBIRKORLARNING BUGUNGI AVLOLOGI YUKORI IJTIMOY MAS'uliyat sub'ekti sifatida: TADBIRKORLARNING BUGUNGI AVLOLOGI YUKORI IJTIMOY MAS'uliyat sub'ekti sifatida. Central Asian Journal of Innovations and Research, 4. <http://www.sciencepublish.org/index.php/cajir/article/view/187> dan olindi
6. Nigmatova A.N., Abdusapieva R.R., & Siddiqov N.N. (2023). OG'IZ SOG'LIGI BILAN BO'LGAN HAYOT SIFATI VA UNING KATTALARGA TA'SIRI. Innovatsiyalar: Ijtimoiy fanlar va tadqiqotlar jurnali, 1(5), 84-87. doi: 10.5281/zenodo7569563